



**QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
QARORI**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko'chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 27 - iyun

238-4-58-Q/22

Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanida 2022-2023 o'quv yilida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" 140-sonli qarori ijrosini ta'minlash, tumandagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga maktab yoshidagi bolalarni to'liq qamrab olish jarayonida umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Qamashi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi (B.Haydarov), tuman xalq ta'limi bo'limi (N.Abrayeva) bilan birgalikda tumandagi umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab olish, o'quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi topshirilsin.

3. Tumandagi umumta'lim muassasalar rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o'z vaqtida umumta'lim muassasasiga o'qishga jalb qilish uchun mas'ul hisoblansin.

4. Tumandagi o‘quvchi soni quvvatiga nisbatan ortib ketib, 1,6 koeffitsiyentdan yuqori bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab 1-sinf uchun tuman hokimining mazkur qarori bilan biriktirilgan mikrohududlardan boshqa hududlarda istiqomat qiluvchi maktab yoshidagi bolalarni qabul qilinmasligi belgilansin.

5. Tumandagi 9-davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabiga qabul O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi "Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida" 173-sonli qaror talablari asosida amalga oshirilsin.

6. Mazkur qaror “Qamashi” gazetasi hamada ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Qamashi tuman hokimining 2021-yil 26-avgustdagi *“Qamashi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”* 418-4-58-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



B.Tog‘ayev

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 27 iyundagi
238-4-58-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Qamashi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga to'liq
qamrab olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar
(mikrohudud)**

RO'YXATI

№	Umumta'lim muassasasi tartib raqami	Umumta'lim muassasasi joylashgan manzili	Umumta'lim muassasasiga birlashtirilgan hudud (MFY yoki ko'cha)
1	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Navoiy MFY Nodira ko'chasi	Navoiy MFY - Navoiy, Alpomish, G'allakor, Ozod, Langar, Iftixor, Charog'on, Turon ko'chalari
2	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Istiqbol MFY Oynako'l qishlog'i	Oynako'l, Do'ng kuba, Katta kuba, O'rta kuba qishloqlari
3	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Qorabog' MFY Qorabog' qishlog'i	Qorabog', Juybeknazar, Ko'lyomg'ir-1 qishloqlari
4	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Chim MFY O'rtachim qishlog'i	O'rtachim qishlog'i
5	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Qiziltepa MFY Qiziltepa shaharchasi	Qiziltepa-1, Obod aholi punkti
6	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Badaxshon MFY Badaxshon shaharchasi	Badaxshon shaharchasi
7	7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Zafar MFY A.Temur ko'chasi	Zafar MFY - J.Manguberdi, A.Temur, Qamashi, To'maris ko'chalari Ulug'bek MFY - Kamolat, A.Yassaviy, Ma'rifat, Ulug'bek. Do'stlik, A.Temur, Qamashi. Adolat, Iftixor ko'chalari Do'stlik MFY - Baraka ko'chasi Ibn Sino MFY - Qatortol, Baraka, Bodomzor, Istiqlol, Olimpiada ko'chalari Oybek MFY - O'zbekiston mustaqilligi, Toshkent, Ma'rifat, Bodomzor ko'chalari
8	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Ko'kbuloq MFY Yangibog' qishlog'i	Yangibog' qishlog'i
9	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Bog'obod MFY Qushko'l qishlog'i	Qushko'l qishlog'i
10	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Savsantepa MFY Nagahon qishlog'i	Nagaxon-1, Nagaxon-2 qishloqlari

11	11-umumiy o'rtata'lim maktabi	Balandchayla MFY Chimqo'rg'on qishlog'i	Chimqo'rg'on, Mang'it qishloqlari
12	12-umumiy o'rtata'lim maktabi	Paxtaobod MFY Navobod qishlog'i	Navobod qishlog'i
13	13-umumiy o'rtata'lim maktabi	To'qboy MFY To'qboy qishlog'i	To'qboy, G'alaba qishloqlari
14	14-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qoratepa MFY Qoratepa shaharchasi	Qoratepa shaharchasi
15	15-umumiy o'rtata'lim maktabi	Rabot MFY Uzumzor qishlog'i	Uzumzor, Mehnatobod, Sartuldi, Bayram, Qo'rg'ontepa qishloqlari
16	16-umumiy o'rtata'lim maktabi	Bunyodkor MFY Qiziltepa shaharchasi	Qiziltepa-2, Qiziltepa-3, Qiziltepa-4 aholi punkti
17	17-umumiy o'rtata'lim maktabi	Mang'it MFY Buyuk ipak yo'li ko'chasi	Mang'it MFY - Buyuk ipak yo'li, iftixor shoxko'chasi O'zbekiston MFY - Bunyodkor, Shirin, Farg'ona, Chimqo'rg'on ko'chalari
18	18-umumiy o'rtata'lim maktabi	Oynako'l MFY Qo'shchi qishlog'i	Oynako'l-2, Qushchi, Devonbegi, Xo'ja qishloqlari
19	19-umumiy o'rtata'lim maktabi	Yortepa MFY Xontushdi qishlog'i	Xontushdi qishlog'i
20	20-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qo'ng'iro't MFY Eshmat qishlog'i	Eshmat, O'lmas qishloqlari
21	21-umumiy o'rtata'lim maktabi	Olmazor MFY Uchtut qishlog'i	O'lmas, Uchtut, Olmazor qishloqlari
22	22-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qamay MFY Mirzadala qishlog'i	Mirzadala, Chorvador qishloqlari
23	23-umumiy o'rtata'lim maktabi	G'ishtli MFY G'ishtli qishlog'i	G'ishtli, Yangi, Xalqobod, Olmazor, Baxrin, Mang'it qishloqlari
24	24-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qo'shkapa MFY Qo'shkapa qishlog'i	Qizilsoy, Qo'shkapa qishloqlari
25	25-umumiy o'rtata'lim maktabi	Changak MFY Oqdahana qishlog'i	Oqdahana qishlog'i
26	26-umumiy o'rtata'lim maktabi	Dovud MFY Kaltatoy qishlog'i	Kaltatoy qishlog'i
27	27-umumiy o'rtata'lim maktabi	Boybo'ri MFY Esaboy qishlog'i	Esaboy, Qozoq qishloqlari
28	28-umumiy o'rtata'lim maktabi	Quyi yangi MFY Quyi yangi qishlog'i	Quyi yangi qishlog'i
29	29-umumiy o'rtata'lim maktabi	Katta O'ra MFY Ko'kbuloq qishlog'i	Ko'kbuloq, Yangi, Yangi ariq qishloqlari

30	30-umumiy o'rtata'lim maktabi	Bog'obod MFY Olma qishlog'i	Olma, Ters qishloqlari. Dehqonobod tumani Terakli, Yong'oqli, Baqirchi, Qo'rg'on qishloqlari
31	31-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qizilqishloq MFY Qizilqishloq qishlog'i	Qizilqishloq, Tegirmonqul qishloqlari
32	32-umumiy o'rtata'lim maktabi	Sohibkor MFY Saodatli ko'chasi	Qoraqo'ton qishlog'i
33	33-umumiy o'rtata'lim maktabi	Elobod MFY Katta arab qishlog'i	Katta arab qishlog'i
34	34-umumiy o'rtata'lim maktabi	Changak MFY Changak qishlog'i	Qorako'z, Changak qishloqlari
35	35-umumiy o'rtata'lim maktabi	O'rta dara MFY O'rta dara qishlog'i	Bosh dara, O'rta dara qishloqlari
36	36-umumiy o'rtata'lim maktabi	Loyqasoy MFY Olg'a qishlog'i	Olg'a, SHO'rchi, Tayoqli, Saritepa qishloqlari
37	37-umumiy o'rtata'lim maktabi	Chuqurqishloq MFY Chuqur qishlog'i	Chuqur, O'rta dara qishloqlari
38	38-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qovchin MFY Mang'it qishlog'i	Mang'it qishlog'i
39	39-umumiy o'rtata'lim maktabi	Oqrabod MFY Oqrabod qishlog'i	Oqrabod qishlog'i
40	40-umumiy o'rtata'lim maktabi	Balandchayla MFY Balandchayla shaharchasi	Balandchayla shaharchasi, Chambil qishlog'i
41	41-umumiy o'rtata'lim maktabi	Odoqjonbo'z MFY Odoqjonbo'z qishlog'i	Odoqjonbo'z, Guliston, Jonbo'z qishloqlari
42	42-umumiy o'rtata'lim maktabi	Jonbo'zsoy MFY Guliston qishlog'i	Guliston, Gulobod, Bobotog' qishloqlari
43	43-umumiy o'rtata'lim maktabi	Berdoli MFY Berdoli qishlog'i	Berdoli qishlog'i
44	44-umumiy o'rtata'lim maktabi	Gulshan MFY Gulshan qishlog'i	Gulshan, Bog'obod, Xo'ja qishloqlari
45	45-umumiy o'rtata'lim maktabi	Mayda MFY Katta Do'sberdi qishlog'i	Katta do'sberdi, Shakar qishloqlari
46	46-umumiy o'rtata'lim maktabi	Elobod MFY Kattatol qishlog'i	Katta tol qishlog'i
47	47-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qovchin MFY Qovchin qishlog'i	Qovchin, Yuqori yangi, Quriq qishloqlari
48	48-umumiy o'rtata'lim maktabi	Sarkash MFY Qo'tonboy qishlog'i	Qo'tonboy qishlog'i
49	49-umumiy o'rtata'lim maktabi	Savsan tepa MFY Savsan qishlog'i	Savsan, Obod qishloqlari
50	50-umumiy o'rtata'lim maktabi	Boburtepa MFY Qo'shtamg'ali qishlog'i	Qo'shtamg'ali qishlog'i

51	51-umumiy o'rtata'lim maktabi	Yortepa MFY Uchtepa-2 qishlog'i	Uchtepa qishlog'i
52	52-umumiy o'rtata'lim maktabi	Sarbozor MFY Sarbozor shaharchasi	Sarbozor shaharchasi
53	53-umumiy o'rtata'lim maktabi	Jonbo'z MFY Jonbo'z qishlog'i	Jonbo'z-1, Jonbo'z-2 qishloqlari
54	54-umumiy o'rtata'lim maktabi	Mehr MFY Guliston qishlog'i	Guliston qishlog'i
55	55-umumiy o'rtata'lim maktabi	Katta O'ra MFY Kon qishlog'i	Kon qishlog'i
56	56-umumiy o'rtata'lim maktabi	Boshjonbo'z MFY Boshjonbo'z qishlog'i	Boshjonbo'z qishlog'i
57	57-umumiy o'rtata'lim maktabi	Ko'kbuloq MFY Langar qishlog'i	Langar qishlog'i
58	58-umumiy o'rtata'lim maktabi	Kaptarxona MFY Kaptarxona qishlog'i	Kaptarxona, Sartuldi Past, Obkash, Xo'ja qishloqlari
59	59-umumiy o'rtata'lim maktabi	Paxtaobod MFY Navobod qishlog'i	Navobod qishlog'i
60	60-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qizilqishloq MFY Oqqishloq qishlog'i	Oqqishloq qishlog'i
61	61-umumiy o'rtata'lim maktabi	Ulug'bek MFY Ma'rifat ko'chasi	Do'stlik MFY - Farovon, 2-m/t, O'zbekiston Mustaqilligi, Baraka, Toshkent, Yuksalish ko'chalari Samarqand MFY - Samarqand, Buxoro, Navoiy, Istiqlol, Jasorat, Beruniy, Yoshlik, E'tiqod, Shodlik, G'alaba, Navro'z, Yangi Navoiy, Loyihalashayotgan, Ma'rifat ko'chalari Ibn Sino MFY - Shodlik, Qashqadaryo, Ibn Sino, Olimpiada, Ishonch, Farhod, Bodorzor, Qatoltol ko'chalari Navoiy MFY - Ozod, Langar, Navoiy, Amir Temur ko'chalari Ulug'bek MFY - Shifokor, Qamashi, Do'stlik, Ma'rifat, A.Temur ko'chalari Zafar MFY - J.Manguberdi, To'maris, Fayz, A.Temur ko'chalari
62	62-umumiy o'rtata'lim maktabi	Azlar tepa MFY Qurilish qishlog'i	Qurilish, Shakar, Kichik do'rman qishloqlari

63	63-umumiy o'rtata'lim maktabi	Obod MFY Poklik ko'chasi	O'zbekiston MFY - A.Temur, Olmazor, O'zbekiston, Chimqo'rg'on, Obi xayot, Bunyodkor, Paxtakor, Iftixor, Poklik, Sohil, Quruvchilar, Shirin ko'chalari Zafar MFY - Fayz, Fidakor, Chashma, Farovon ko'chalari Obod MFY - Paxtakor, Obod, Chamanzor, Gulzor, Tinchlik, Saodat, Iqbol, Baxt, Navbahor, Baraka ko'chalari
64	64-umumiy o'rtata'lim maktabi	Uzun MFY Uzun qishlog'i	Uzun qishlog'i
65	65-umumiy o'rtata'lim maktabi	Boburtepa MFY Pasttol qishlog'i	Pasttol qishlog'i
66	66-umumiy o'rtata'lim maktabi	Oqguzar MFY Oqguzar qishlog'i	Oqguzar qishlog'i
67	67-umumiy o'rtata'lim maktabi	Yuksalish MFY Pastarab qishlog'i	Past arab qishlog'i
68	68-umumiy o'rtata'lim maktabi	Loyqasoy MFY Oltintepa qishlog'i	Oltintepa qishlog'i
69	69-umumiy o'rtata'lim maktabi	Mayda MFY Mayda qishlog'i	Mayda qishlog'i
70	70-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qishliq MFY Qishliq qishlog'i	Qishliq-3, Qishliq-4, Qishliq-5, Qishliq-6 qishloqlari
71	71-umumiy o'rtata'lim maktabi	Azlar tepa MFY Dasht Azlar tepa qishlog'i	Dasht Azlar tepa qishlog'i
72	72-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qorasuv MFY Ziyoko'chasi	Qorasuv MFY - Nihol, Vatan, Bahor, Orom, Quvonch, Shukrona, Ravnaq, Hayot, Ziyoko'chasi, Yangiobod, Elobod, Qorasuv ko'chalari
73	73-umumiy o'rtata'lim maktabi	To'qboy MFY To'qboy qishlog'i	To'qboy, Boybo'ri qishloqlari
74	74-umumiy o'rtata'lim maktabi	Azlar tepa MFY Azlar tepa qishlog'i	Azlar tepa qishlog'i
75	75-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qizilqishloq MFY Oqsuv qishlog'i	Oqsuv, Qizilmachit qishloqlari
76	76-umumiy o'rtata'lim maktabi	Qorabog' MFY Ko'lyomg'ir qishlog'i	Ko'lyomg'ir-2, Ko'lyomg'ir-3 qishloqlari
77	77-umumiy o'rtata'lim maktabi	Mayda MFY Do'rmon qishlog'i	Do'rman qishlog'i
78	78-umumiy o'rtata'lim maktabi	Bog'obod MFY Qoranqo'l-2 qishlog'i	Qoranqul-2, Supa-igrisuv, Qiziltom qishloqlari

79	79-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Sohibkor MFY Limonchi ko'chasi	Qoraqo'ton qishlog'i
80	80-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Badaxshon MFY Beldovtepa qishlog'i	Beldovtepa qishlog'i
81	81-умумий ўрта таълим мактаби	Қўшкапа МФЙ Қўшкапа қишлоғи	Қизилсой, Қўшкапа қишлоқлари
82	82-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Qo'ng'iro't MFY Karvon qishlog'i	Karvon, Qizilko'l qishloqlari
83	83-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Ibn Sino MFY T.Tula ko'chasi	Ibn Sino MFY - Kiyik tepa, Terakzor, Ishonch, Halollik, Bog'ishamol, Tutzor, Qashqadaryo ko'chalari
84	84-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Sarbozar MFY Qirqqiz qishlog'i	Qirqqiz qishlog'i
85	85-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Katta O'ra MFY Qo'g'a qishlog'i	Qo'g'a, Chit, Tolli qishloqlari
86	86-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Yortepa MFY Uchtepa-3 qishlog'i	Uchtepa-3, Yangi hayot qishloqlari
87	87-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Dovud MFY Dovud qishlog'i	Dovud, Tudona, Qoranqul-1 qishloqlari
88	88-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Mang'it MFY Buyuk ipak yo'li ko'chasi	Buyuk ipak yo'li, Olmazor ko'chalari
89	9-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi	O'zbekiston MFY Iftixor shohko'chasi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07,08,2008 yildagi "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi 173-sonli qaror talablari asosida
90	90-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Mayda MFY Achchi massivi	Achchi massivi
91	91-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Oqguzar MFY Oqguzar qishlog'i	Oqguzar qishlog'i

92	92-umumiy o'rtata'lim maktabi	Chuqurqishloq MFY Chuqur qishlog'i	Yakkaarcha,Chuqur qishloqlari
93	93-umumiy o'rtata'lim maktabi	Savsantepa MFY Nagahon qishlog'i	Nagahon, Langarobod qishloqlari
94	94-umumiy o'rtata'lim maktabi	Bunyodkor MFY Qiziltepa shaharchasi	Qiziltepa-4 aholi punkti
95	95-umumiy o'rtata'lim maktabi	Jonbuz MFY Gulobod qishlog'i	Guliston, Gulobod